Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321245

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

References:

Cerruela García G., Luque Ruiz I., Gómez-Nieto M. State of the art, trends and future of Bluetooth low energy, near field communication and visible light communication in the development of Smart Cities // Sensors. – 2016. – № 11. – p. 1968. – doi: 10.3390/s16111968.

Gomonov K., Berezin A., Matyushok V., Balashova S. Introduction of Smart Grid in Russia: feasibility study // Proceedings of the 11th International Days of Statistics and Economics. Prague, Czech, 2017. – p. 428-438.

Gorodnova , N. V. (2021). Digital economy development: theory and practice. Russian Journal of Innovation Economics, 11 (3), 911-928. https :// doi . org /10.18334/ vinec .11.3.112227

Abdrakhmanova G.I. , Vishnevsky K.O., Gokhberg L.M., et al. Digital Economy Indicators: 2020. / Statistical Digest. - M.: National Research University Higher School of Economics, 2020. – 360 p.

Andieva E.Yu. , Filchakova V.D. Digital economy of the future, industry 4.0 // Applied Mathematics and Fundamental Informatics. - 2018. - No. 3. - p. 214-218 . Antonopoulos A. Internet of money. - M .: Olimp-Business, 2018 .-- 192 p. Kiselev Yu.N. Electronic commerce. / practical guide. - M .: DiaSoftUP , 2013 .-- 224 p.

Kraskovsky D.G. Internet of Things and Smart City: Autodesk showed how transport infrastructure is developing in Russia // CAD and graphics. – 2017. – No. 8(250). – p. 44-49 .

Pankratov I.Yu., Svertilova N.V. , Lide E.N. Digital state: a new matrix of competencies for digital transformation // Public service. - 2018. - No. 1 (111). - p. 38-43. - doi : 10.22394/2070-8378-2018-20-1-38- 43 .

Panshin B. Digital economy: features and development trends // Science and innovation. – 2016. – No. 3(157). – p. 17-20 .

Utkina V.A. , Emshanova E.V. The main problems of the development of the Internet and online trade in Russia // Young scientist. - 2016. - No. 11 (115). - p. 1031-1033 .

Skibitsky M.M. Information Age and New Economy in the Works of Manuel Castells // The World of the New Economy. – 2015. – No. 4. – p. 62-68 .

Semyachkov K.A. Digital data as a key resource for the development of smart cities // Economy, entrepreneurship and law. - 2020. - No. 12. - p. 3003-3020. - doi : 10.18334/epp.10.12. 111345 .

Tagarov B.Zh. Digital cluster as a new form of economic concept // Creative Economy. - 2021. - No. 2. - p. 327-340 . - doi : 10.18334/ce.15.2.111726.

Shchegoleva N.G., Malsagov T.G. Digital technologies in the economy and ecology of "Smart cities" // Problems of management theory and practice. - 2019. - No. 3-4 . - p. 12-22.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMINING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA’SIRI

Ilmidin Yormatov Toshmatovich
Farg‘ona politexnika instituti Email: ilmidin.yormatov@ferpi.uz

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ilmidin Yormatov Toshmatovich (2024). O‘zbekistonda ta’lim tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta’siri. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321245

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimidagi muammolar batafsil muhokama qilingan. Sifat, infratuzilma va ish bilan ta’minlash kabi asosiy masalalar ta’lim samaradorligi hamda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani ta’kidlangan. Oliy ta’lim muassasalaridagi resurs yetishmovchiliklari, ta’lim standartlaridagi kamchiliklar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish zaruriyati o‘rganilgan. Maqolada ta’lim tizimini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar bildirilgan, zamonaviy resurslar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, sifat, infratuzilma, ish bilan ta’minlash, oliy ta’lim, muammolar, pedagogik metodikalar, zamonaviy resurslar, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish

Ta’lim tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy poydevorlardan biridir. Sifatli ta’lim nafaqat insonlarning intellektual rivojlanishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kundalik jarayonini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda ta’limning to‘g‘ri tashkil etilganligi kadrlar tayyorlash, innovatsion g‘oyalarni yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda o‘z ishtirokini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi mamlakatning iqtisodiy barqarorlikka erishishida muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik davrida mamlakat o‘z ta’lim muassasalari tizimini takomillashtirish, ta’lim standartlarini yaxshilash va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimi umumiy ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’limni qamrab oladi, bu esa yangi avlodning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta’lim tizimining rivojlanishi, hamda ta’lim olish imkoniyatlari kengayishi, yosh avlodning kelgusida yuqori ish samaradorligiga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada O‘zbekistondagi ta’lim tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta’siri, uning rivojlanish dinamikasi va kelajakdagi imkoniyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlanishi

O‘zbekistonda ta’lim tizimi mustaqillikdan keyingi davrda muhim o‘zgarishlarga uchradi, bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. 1997 yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun va 2017 yilda qabul qilingan "Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi" ta’lim tizimini modernizatsiyalash va zamonaviy talablarga moslashtirishga yo‘naltirilgan. Bugungi kunda ta’lim tizimi umumiy, professional va oliy ta’limni qamrab olib, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos keladigan kadrlar sifatida tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta’siri

Ta’lim tizimi iqtisodiy barqarorlikka bir necha yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirlar tashkilotlarning samaradorligidan tortib, mamlakatning umumiy rivojlanishini ta’minlashgacha bo‘lgan ko‘plab muhim aspektlarni qamrab oladi.

1. Kadrlar tayyorlash. Sifatli ta’limning birinchi va eng muhim ta’sirlari qadrlar tayyorlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy iqtisod haqida gapirganda, malakali kadrlar har qanday ishlab chiqarishning asosi hisoblangan. Afsuski, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan kadrlar ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirishga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta’lim tizimi o‘z oldiga yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni o‘z maqsadi sifatida belgilagan. Olgan bilimlarini amalga oshirish va muammolarni hal etish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar, iqtisodiy

rivojlanishga salbiy ta’sir o‘tkazuvchi omillarni minimallashtiradi. Shu tariqa, ta’lim tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun muhim manba bo‘ladi.

2. Innovatsiyalar va texnologii. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar ham iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi. Zamonaviy dunyoda texnologik o‘zgarishlar tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda oson va to‘g‘ri fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar innovatsiyalarni yaratish, tadqiqotlar o‘tkazish va yangi goyalarni amalga oshirish uchun zarur. Malakali ta’lim olish orqali yoshlar innovatsion g‘oyalar, yangi metodikalar, texnologiyalar bilan ta’minlanadi.

3. Ijtimoiy barqarorlik. Ta’limning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim olish imkoniyati barcha uchun teng bo‘lishi kerak. Agar ta’lim tizimi ijtimoiy adolatni ta’minlasa, ya’ni barcha fuqarolarga teng ta’lim olgan holda, iqtisodiy barqarorlik poydevorni saqlashda o‘z hissasini qo‘shadi.

Tadqiqotninig natijalari va ularning muhokamasi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ta’lim tizimidi juda katta ahamiyatga ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan fyrim muammolar ham mavjud. Ijtimoiy hayotdagi dinamik o‘zgarishlar va jahon iqtisodiyotidagi raqobatga moslashish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish zarur. Kelgusida ta’limning samaradorligini oshirish uchun bu muammolarni jiddiy har tomondan yechish lozim.

1. Sifat. Ta’lim sifati ta’lim tizimining asosiy muammosidir, chunki ba’zi darslarda berilgan bilimlar talablarga javob bermaydi. Oliy ta’lim muassasalaridagi standartlar yetarli darajada ishlanmagani va zamonaviy talablarga javob bermaydi. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasi ham muhim ahamiyatga ega; zamonaviy ta’lim metodikalari bilan tanish bo‘lmagan pedagoglar o‘z sohasida yetuk bilimga ega bo‘lmaydi, bu esa ularning professional rivojlanishi uchun tizimli imkoniyatlarni yetishmasligini keltirib chiqaradi.

2. Infratuzilma. Ta’lim muassasalari uchun zarur infratuzilma yetishmasligi ta’limning samaradorligini pasaytiradi. Misol uchun, ko‘plab muassasalarda laboratoriya jihozlarining yetishmasligi talabalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Infratuzilma, ya’ni auditoriyalar, bog‘cha, sportzallar va boshqa ta’lim ob’ektlarining holatiga alohida e’tibor berish kerak.

3. Ish bilan ta’minlash. Oliy ta’limni tugatgan yoshlarning ish bilan ta’minlanishidagi muammolar ta’lim tizimining eng katta muammosi bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim muassasalari malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur imkoniyatlarga ega bo‘lmasa, bu mehnat bozori talablarini qondirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, ta’lim sifati pastlashadi va mehnat bozoridagi talablarga mos kelmaydi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun bir qator takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, ta’lim sifatiga e’tiborni kuchaytirish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim standartlarini joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik metodikalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish kerak. Zamonaviy ta’lim muassasalari, laboratoriyalar va resurs markazlarini tashkil etish, shuningdek, onlayn ta’lim platformalarini rivojlantirish orqali ta’limning samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, yoshlarni ish bilan ta’minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish ham muhim. Oliy ta’limni tugatgan yoshlarning ishga joylashishini osonlashtirish maqsadida, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda stajirovkalar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun kam ta’minlangan oiladan kelgan yoshlarga maxsus stipendiyalar va grantlar berish mexanizmlarini joriy etish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Xulosa

Ta’lim tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sifatli ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali mamlakatning rivojlanishini tezlashtirish mumkin. Iqtisodiyotning barqarorligi, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash ham ta’lim tizimiga bog‘liq bo‘lib, ta’lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi va yuqori standartlarga ega buladigan ta’lim muassasalari tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

Mavjud muammolarni hal qilish uchun oliy ta’lim va professional ta’limdan foydalanish, milliy hamda xalqaro standartlarga mos muhitni yaratish kerak. Shu bilan birga, ta’limning samaradoriini oshirish va iqtisodiy sohadagi kadrlarning malakasini rivojlantirish uchun iqtisodiyotning talablarini hisobga olish lozim. Bundan kelib chiqib, O‘zbekistondagi ta’lim tizimi yangilanish, hamkorlik va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishni davom ettirishi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 oktabrdagi "Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi" to‘g‘risidagi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining 2022 yilgi hisobotlari.

3. Nuriev, N. (2018). O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar. Toshkent: O‘zbekiston davlat universiteti.

4. Alimov, I. (2021). "Oliy ta’limda innovatsion metodlarni joriy etish". Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnal, 12(2), 22-30.

5. Boymatov, M. (2022). "O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi iqtisodiy muammolar" / Xalqaro pedagogik seminar materiallari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 78-82.

6. Yormatov I. Sifatli kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar //Yevraziyskiy jurnal sotsialnых nauk, filosofii i kulturы. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 83-86.

7. Yormatov I. T. Voprosы kachestvennoy podgotovki kadrov //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – S. 39-43.

8. Qambarov, J, Yormatov, I. (2022). Ta’lim sifatini oshirishda avtomatlashtirilgan va monitoring tizimi imkoniyatlaridan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqiotlar xalqaro jurnali, 2(1), 41-50.

9. Yermatov I. T. (2021). Oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ma’yoriy huquqiy hujjatlar va ularni ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ayrim masalalari.“. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 227-229.

FAN VA INNOVATSIYALARNI INTEGRATSIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI

Ilmidin Yormatov Toshmatovich
Farg‘ona politexnika instituti Email: ilmidin.yormatov@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada fan va innovatsiyalarni integratsiyalashtirishning ahamiyatini tahlil qilinadi. Innovatsion mahsulotlarning ulushi, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, ta’lim tizimining rivoji va biznes sektoridagi yutuqlar mufassal shaklda yoritiladi. Shuningdek, mamlakatlar, Janubiy Koreyaning integratsiyalashuvi bo‘yicha amaliy va nazariy tajribalari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi fan va innovatsiyalarni